JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 5, Issue 1, November 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

MA’MURIY HUJJATNI QISMAN HAQIQIY EMAS DEB TOPIŞ MEZONLARI

Muxammadyusuf Dexqonov Nozimjon o’g’li
Toşkent davlat yuridik universiteti magistranti
Davlat boşqaruv huquqi mutaxassisligi, Toşkent, Özbekiston

ИНФОРМАЦИЯ О СТАТЬЕ

ИСТОРИЯ СТАТЬИ:
Received:18.11.2026
Revised: 19.11.2026
Accepted:20.11.2026

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
ma’muriy hujjat, qisman haqiqiy emaslik, hujjat qismlarining mustaqilligi, ma’muriy ixtiyoriylik, sud qarorini asoslantiriş..

АННОТАЦИЯ:

Maqolada ma’muriy hujjatning ayrim qismlarini sud tomonidan haqiqiy emas deb topiş mezonlari örganiladi. Özbekiston qonunçiligi, milliy sud amaliyoti va Germaniya huquqi qiyosiy tahlil qilinadi. Qonunga xilof qism hujjatda alohida band sifatida yozilganining özi uning mustaqilligini anglatmasligi asoslantiriladi. Qisman haqiqiy emas deb topişda g’ayriqonuniylikning hujjat böyiça qamrovi, qolgan qismning mustaqil va aniq qöllanişi hamda sud tanlagan çoraning ma’muriy organ belgilagan tartibga ta’sirini baholaş taklif etiladi. Sud qarorining asoslantiruvçi va xulosa qismlarida mazkur baho qanday ifodalanişi körsatiladi.

1. Kiriş

Sönggi yillarda Özbekistonda ma’muriy sud işlarini yuritiş tartibini takomillaştirişga va şaxslarning huquqlarini ma’muriy organlarning qonunga xilof qarorlaridan sud orqali himoya qilişga alohida e’tibor qaratilmoqda. Şu jarayonda ma’muriy hujjatning faqat ayrim qoidalari qonunçilikka zid bölgan hollarda sud qanday çora qöllaşi masalasi alohida ahamiyatga ega. Bitta hujjatdagi ayrim qoidalar mustaqil huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirişi, boşqalari esa özaro boğliq holda yagona huquqiy natijani belgilaşi mumkin. Şuning uçun hujjatning bir qismini haqiqiy emas deb topiş masalasida nizoli qism ajratilgaç, qolgan qoidalar mustaqil qöllana oladimi va bunday çora arizaçining buzilgan huquqini tiklaşga yetarlimi, degan savollar yuzaga keladi.

Özbekiston Respublikasining Ma’muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksining (bundan buyon — MSIYutK) 188-moddasiga köra, sud nizolaşilayotgan qaror yoki uning ayrim qismlarining qonuniyligini tekşiradi hamda ular arizaçining huquqlari va qonun bilan qöriqlanadigan manfaatlarini buzgan-buzmaganini aniqlaydi. Kodeksning 189-moddasi

tegişli asoslar mavjud bölganda qarorni yoki uning ayrim qismlarini haqiqiy emas deb topişni nazarda tutadi.[65]

Y. Saidazimov ma’muriy hujjatdagi nuqson ayrim qoidalarga taalluqli bölsa va ular qolgan qoidalardan mustaqil bölsa, sud çorani şu qoidalar bilan çeklaşi mumkinligini ta’kidlaydi. Muallif hujjat nizoli qoidasiz öz mazmunini yöqotişini mustaqillik yöqligining belgisi sifatida körsatadi.[66] Uşbu maqola mazkur yondaşuvdan kelib çiqib, sud mustaqillik haqida xulosa çiqariş uçun qaysi holatlarni tekşirişi va natijani hal qiluv qarorida qanday asoslantirişi lozimligini örganadi. Tadqiqot individual ma’muriy hujjatlarga qaratilgan.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda formal-yuridik va qiyosiy-huquqiy usullar hamda sud amaliyoti tahlilidan foydalanildi. Formal-yuridik tahlil doirasida Ma’muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksning 188 va 189-moddalari “Ma’muriy tartib-taomillar töğrisida”gi Qonunning 53 va 54-moddalari bilan boğliq holda talqin qilindi. Ma’muriy hujjat qismlarining mustaqilligiga oid ilmiy qaraşlar uç savol asosida örganildi: qonunbuziliş hujjatning qaysi qismiga taalluqli, nizoli qism ajratilgaç qolgan qoidalar mustaqil qöllana oladimi va tanlangan çora arizaçining buzilgan huquqini tiklaşga yetarlimi? Sud amaliyoti tahlilida Oliy sudning rasmiy şarhida yoritilgan 5-1701-2406/12-sonli hujjat misol tariqasida olindi. Unda hokim qarorining nizolaşilgan qismi va uşbu qismga oid sud qarorining uçinçi şaxs huquqlariga ta’siri örganildi. Qiyosiy tahlilda Germaniya qonunçiligi va sud amaliyoti ma’muriy hujjatning ayrim qismlarini ajratiş mezonlari böyiça körib çiqildi. [67]

3. Natijalar va tahlil

I. Ma’muriy hujjatning g’ayriqonuniy qismini aniqlaş

Qisman haqiqiy emas deb topişda birinçi tekşiruv nuqson hujjatning qaysi qismiga taalluqli ekanini aniqlaşdan boşlanadi. Masalan, bitta qarorda ikki şaxsga oid mustaqil masalalar hal qilingan va biriga oid qaror notöğri fakt asosida çiqarilgan bölsa, şu nuqsonning ikkinçi şaxsga oid qismga ham taalluqli ekanini alohida asoslaş kerak. Aksinça, ma’muriy organ hujjat bilan hal etilgan masalalarning barçasi yuzasidan vakolatga ega bölmagan bölsa, hujjatning boşqa bandlari alohida raqamlanganining özi ularni saqlaşga asos bermaydi. Vakolat masalasi faqat bitta bandga taalluqli bölsa, xulosa ham şu band doirasida tekşiriladi.[68]

[65]O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (MSIYutK), 188 va 189-moddalar. https://lex.uz/docs/-3527353

[66]Saidazimov Y. S. Ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. TDYU. https://oak.uz/pages/21904

[67]O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ–457-son «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni, 53 va 54-moddalar. https://lex.uz/docs/-3492199; O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (MSIYutK), 188 va 189-moddalar. https://lex.uz/docs/-3527353

[68]O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (MSIYutK), 188 va 189-moddalar: qaror yoki uning ayrim qismlari, organ vakolati va arizachi huquqlarini tekshirishga oid qoidalar. https://lex.uz/docs/-3527353

Tartib-taomil buzilişining qamrovi ham ma’muriy hujjatning taşqi tuzilişiga qarab aniqlanmaydi. Bir manfaatdor şaxsning fikri tinglanmaganida uning bayonoti qaysi masalani hal qiliş uçun ahamiyatli bölişi mumkinligi tekşiriladi. Agar şaxsning dalillari bir bandga emas, qarordagi bir-biriga boğliq bir neça masalaga daxldor bölsa, qonunbuzilişni bitta band bilan boğlaş yetarli asosga ega bölmaydi. Bunda sud tinglamaslikning özini va u hujjatning qaysi qismlariga taalluqli ekanini alohida asoslaydi.[69]

II. Ma’muriy hujjat qisman haqiqiy emas deb topilganda qolgan qismining amal qilişi

Y. S. Saidazimov ma’muriy hujjatning ayrim qoidalarini haqiqiy emas deb topiş imkonini ularning qolgan qoidalardan mustaqilligi bilan boğlaydi. Muallifning fikriça, nizoli qoidasiz hujjat öz ma’nosini yöqotsa, uşbu qoidani alohida ajratib bölmaydi.[70] Germaniya Federal ma’muriy sudi ham qisman bekor qiliş masalasida hujjatning qolgan qismi öz mazmunini özgartirmagan holda amal qila olişiga e’tibor qaratadi. Sudga köra, hujjatda alohida qöllaş mumkin bölgan qoida saqlanib qolişining özi yetarli emas: nizoli qismni ajratiş qarorning umumiy mazmuniga qanday ta’sir qilişini ham baholaş kerak.[71]

Şundan kelib çiqib, ma’muriy hujjatning bir qismini haqiqiy emas deb topişda sud qolgan qoidalar asosida organ belgilagan huquq yoki majburiyatni avvalgi mazmunida qöllaş mumkinligini aniqlaşi lozim. Masalan, bitta qarorda ikki obyekt böyiça alohida xulosa çiqarilgan bölsa, bir obyektga oid bandni haqiqiy emas deb topiş ikkinçisiga oid xulosani özgartirmasligi mumkin. Biroq nizoli band boşqa bandda berilgan huquqning doirasini belgilasa, uni ajratiş qolgan qoidaning mazmunini ham özgartirişi mumkin. Bunday holatda sud hal qiluv qarorida nima uçun faqat nizoli bandni haqiqiy emas deb topiş yetarli yoki yetarli emasligini qoidalar örtasidagi şu boğliqlikdan kelib çiqib asoslantirişi kerak.[72]

III. Ma’muriy hujjatni qisman haqiqiy emas deb topişda uçinçi şaxsning huquqlari

Ma’muriy hujjatning faqat bir qismi nizolaşilganida ham, iş böyiça çiqariladigan hal qiluv qarori arizada körsatilmagan şaxsning huquq yoki majburiyatlariga ta’sir qilişi mumkin. Ma’muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksning 45-moddasiga köra, sud hujjati şaxsning taraflardan biriga nisbatan huquq yoki majburiyatlariga ta’sir körsatişi mumkin bölsa, u nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uçinçi şaxs sifatida işga jalb etilişi mumkin.[73]

Oliy sudning 2024-yil törtinçi çorak sud amaliyoti şarhida bayon etilgan 5-1701-2406/12-son ma’muriy işda uçinçi şaxsni sud muhokamasiga jalb etiş masalasi körib çiqilgan.

[69]O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ–457-son «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni, 9-modda: tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi. https://lex.uz/docs/-3492199
[70]Saidazimov Y. S. Ma’muriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. TDYU.
[71]Germaniya Federal ma’muriy sudi (Bundesverwaltungsgericht). 2020-yil 1-iyuldagi 3 B 1.20-son ajrim, 14-band. https://www.bverwg.de/de/010720B3B1.20.0
[72]Qiyosiy asos: Germaniya Federal ma’muriy sudi (Bundesverwaltungsgericht). 2020-yil 1-iyuldagi 3 B 1.20-son ajrim, 14-band. https://www.bverwg.de/de/010720B3B1.20.0
[73]O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (MSIYutK), 45-modda. https://lex.uz/docs/-3527353

Arizaçi Andijon tuman hokimining yer uçastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qiliş huquqini belgilagan qarorini muayyan şaxsga oid qismida hamda viloyat quriliş boş boşqarmasi bergan obyektdan foydalaniş ruxsatnomasini haqiqiy emas deb topişni söragan. Birinçi instansiya sudi har ikki talabni qanoatlantirgan. Biroq nizodagi köçmas mulkning bir qismini notarial şartnoma asosida sotib olgan va unga oid huquqi davlat röyxatidan ötkazilgan xaridor işga jalb qilinmagan. Oliy sud quyi instansiyalarning qarorlari xaridorning huquqlariga bevosita ta'sir qilganini qayd etib, apellyatsiya va taftiş instansiyalari qarorlarini bekor qilgan hamda işni yangidan köriş uçun apellyatsiya instansiyasiga yuborgan.[74]

Mazkur işda Oliy sud hokim qarorining nizoli qismini qolgan qismidan ajratiş mumkinligi haqida yakuniy xulosa bermagan. Uning xulosasi işning protsessual tomoniga taalluqli: xaridorning huquqlariga ta'sir qiladigan masala uning iştirokisiz hal qilingan. Qisman haqiqiy emas deb topiş mezonlari nuqtayi nazaridan, bu iş ikki masalani alohida baholaş zarurligini körsatadi. Birinçisi, nizoli bandni ajratgaç, hokim qarorining qolgan qoidalari avvalgi mazmunida qöllana oladimi? Ikkinçisi, aynan şu bandni haqiqiy emas deb topiş işda qatnaşmayotgan şaxsning huquqiy holatiga ta'sir qiladimi? Birinçi masala bandlarning mazmuniga, ikkinçisi esa işda kimlar iştirok etişi kerakligiga taalluqlidir. Şu bilan birga, hokim qarorining bir qismini haqiqiy emas deb topiş va boşqa organ bergan ruxsatnomani haqiqiy emas deb topiş ikki alohida talab bölgani uçun sud har biri böyiça xulosasini alohida asoslantirişi kerak.[75]

IV. Germaniya qonunçiligida ma'muriy hujjatni qisman haqiqiy emas deb topiş

Germaniyaning Ma'muriy tartib-taomillar töğrisidagi qonuni (VwVfG) 44-paragrafining törtinçi qismiga köra, ma'muriy hujjatning bir qismi boşidanoq haqiqiy emasligi butun hujjatning haqiqiy emasligini anglatmaydi. Bunda haqiqiy bölmagan qism ma'muriy organning qaror qabul qilişi uçun qanday ahamiyatga ega bölgani aniqlanadi. Agar organ öşa qism bölmaganida hujjatni qolgan mazmunida qabul qilgan bölar edi, degan xulosaga kelinsa, haqiqiy emaslik faqat şu qismga taalluqli böladi. Agar öşa qism qaror qabul qilinişi uçun hal qiluvçi ahamiyatga ega bölgan va organ usiz hujjatni qabul qilmagan bölar edi, degan xulosa asoslantirilsa, hujjat töliq haqiqiy emas hisoblanadi. T. Brings-Wiesen uşbu mezonni şarhlar ekan, nizoli qismning ahamiyatini baholaşda organ qabul qilgan qarorning mazmuniga e'tibor qaratadi.[76]

Hujjatning bir qismini sud tartibida bekor qilişda ham qoidalarning özaro boğliqligi ahamiyatga ega. Germaniya Federal ma'muriy sudi 2020-yil 1-iyuldagi 3 B 1.20-son

[74]O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha 2024-yil to'rtinchi chorak sud amaliyoti sharhi. 5–6-betlar, 5-1701-2406/12-son ish. https://sud.uz/wp-content/uploads/2025/01/mib4.pdf#page=5
[75]O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi (MSIYutK), 45 va 189-moddalar. https://lex.uz/docs/-3527353
[76]Verwaltungsverfahrensgesetz (VwVfG), § 44 Abs. 4. https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/__44.html; Brings-Wiesen T. Teilnichtigkeit, § 44 IV VwVfG // Eisentraut N. (Hrsg.). Verwaltungsrecht in der Klausur. § 6, Rn. 163. https://doi.org/10.1515/9783110656220-015

ajrimida hujjatning qolgan qoidalari nizoli qismsiz ham avvalgi mazmunida amal qila olişini baholaş kerakligini körsatgan. Sudning fikriça, ayrim qoidalarni alohida qöllaş mumkinligining özi yetarli emas: nizoli qismni ajratiş qarorning umumiy mazmunini özgartiradimi, degan masala ham tekşiriladi. Agar ma'muriy organ qarorni diskretsion vakolati doirasida qabul qilgan bölsa, sud qarorning asoslari va iş holatlaridan kelib çiqib, organ nizoli qoida bölmaganida ham ayni mazmundagi qarorni qabul qilgan bölarmidi, degan masalani baholaydi. Bunday baholaş nizoli qoidani ajratiş natijasida ma'muriy organ özi qabul qilmagan mazmundagi qarorni ijro etişga majbur bölib qolişining oldini olişga xizmat qiladi.[77]

Germaniya huquqida hujjatning boşidanoq haqiqiy emasligi va uning ayrim qismini sud tartibida bekor qiliş alohida institutlardir. Özbekiston sud amaliyoti uçun uşbu tajribaning qiyosiy ahamiyati şundaki, hujjatni qisman haqiqiy emas deb topişda qolgan qoidalarni qöllaş mumkinligi bilan birga, ular ma'muriy organ belgilagan huquq va majburiyatlarni avvalgi mazmunida saqlab qolişi ham baholanişi mumkin.[78]

4. Muhokama

Saidazimov ilgari surgan mezonga köra, ma'muriy hujjatni qisman haqiqiy emas deb topişda nizoli qoidani hujjatning qolgan qismidan ajratiş mumkinligi baholanadi. Uşbu mezonni qöllaş uçun sud avvalo nizoli qoida qanday huquqni belgilaşi yoki qanday majburiyat yuklaşini, aniqlangan qonunbuziliş esa faqat şu qoidaga yoki u bilan boğliq boşqa qoidalarga ham taalluqli ekanini aniqlaşi kerak. Şundan söng nizoli qoida haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, hujjatning qolgan qismi avvalgi mazmunini saqlagan holda qöllanişi va tanlangan çora davogarning buzilgan huquqini tiklaşga yetarliligi baholanadi.[79]

Agar nizoli qoida haqiqiy emas deb topilgaç, hujjatning qolgan qismi asosida huquq va majburiyatlarni avvalgi hajmda belgilaş mumkin bölsa, sud çorani şu qoida bilan çeklaşi mumkin. Biroq nizoli qoida olib taşlangaç, huquq yoki majburiyatning hajmini yangidan belgilaş, bir neçta qonuniy yeçimdan birini tanlaş yoxud ma'muriy iş uçun ahamiyatli holatlarni qöşimça tekşiriş zarurati tuğilsa, hujjatning faqat bir qismini haqiqiy emas deb topişning özi yetarli bölmasligi mumkin. Bu holat butun hujjatni haqiqiy emas deb topiş uçun öz-özidan asos bölmaydi. Sud arizaçining talabini va aniqlangan qonunbuzilişning hujjatning boşqa qismlariga ta'sirini hisobga olib, Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksning 189-moddasi doirasida buzilişni bartaraf etiş çorasini belgilaydi.[80]

[77]Germaniya Federal ma'muriy sudi (Bundesverwaltungsgericht). 2020-yil 1-iyuldagi 3 B 1.20-son ajrim, 14-band. https://www.bverwg.de/de/010720B3B1.20.0

[78]Qiyoslash uchun: Verwaltungsverfahrensgesetz (VwVfG), § 44 Abs. 4. https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/__44.html; Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO), § 113 Abs. 1 Satz 1. https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/__113.html

[79]Saidazimov Y. S. Ma'muriy hujjatni o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. TDYU.

[80]O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi (MSIYutK), 189-modda: qonunbuzilishni bartaraf etish choralariga oid qoidalar. https://lex.uz/docs/-3527353

Şu munosabat bilan, hal qiluv qarorining asoslantiruvçi qismida qaysi huquqiy norma buzilgani, qonunbuziliş hujjatning qaysi qismiga taalluqli ekani va nima uçun aynan şu qismni haqiqiy emas deb topiş yetarli deb hisoblangani körsatilişi taklif etiladi. Qarorning xulosa qismida esa ma'muriy hujjatning sanasi va raqami bilan birga, haqiqiy emas deb topilgan band, ilova satri yoki bandning muayyan şaxsga yoxud obyektga taalluqli qismi aniq körsatilişi lozim. Agar sud qonunbuzilişni bartaraf etiş majburiyatini ma'muriy organ zimmasiga yuklasa, organ bajarişi kerak bölgan harakat ham xulosa qismida ifodalanadi. Şunda qarorni ijro etişda hujjatning qaysi qismi haqiqiy emas deb topilgani va organ nima qilişi kerakligi aniq böladi.[81]

5. Xulosa

Tadqiqot natijalariga köra, ma'muriy hujjatni qisman haqiqiy emas deb topiş masalasini hal etişda uç holatni baholaş taklif etiladi: aniqlangan qonunbuziliş hujjatning qaysi qoidalariga taalluqli ekani, nizoli qoida haqiqiy emas deb topilgaç hujjatning qolgan qismi öz mazmunini saqlagan holda qöllanişi hamda tanlangan çoraning arizaçining buzilgan huquqini tiklaşga yetarliligi. Nizoli qoidaning alohida bandda ifodalangani uni hujjatdan ajratiş uçun yetarli asos böla olmaydi. Hal qiluvçi mezon bu şu qoidasiz ham hujjatning qolgan qismi ma'muriy organ belgilagan huquq va majburiyatlarni özgartirmagan holda qöllanişidir.

Agar ma'muriy hujjatning nizolaşilayotgan qismi haqiqiy emas deb topiş natijasida qolgan qoidalarning mazmuni özgarsa yoki huquq va majburiyatlar hajmini yangidan belgilaş zarurati tuğilsa, sud buzilgan huquqni tiklaş uçun qanday çora zarurligini iş holatlari va arizaçining talabi asosida belgilaşi lozim. Bunday holat butun hujjatni haqiqiy emas deb topiş uçun öz-özidan asos bölmaydi. Şuningdek, talab hujjatning faqat bir qismiga qaratilgani sud qarorining ta'siri arizaçi bilan çeklanişini anglatmaydi. Qaror boşqa şaxsning huquq yoki majburiyatlariga ta'sir qilişi mumkin bölsa, uni sud muhokamasiga jalb etiş masalasi nizo mazmunan hal etilişidan oldin körib çiqilişi lozim.

Sud amaliyotida hal qiluv qarorining asoslantiruvçi qismida qonunbuziliş nima sababdan aynan nizoli qoidaga taalluqli ekani, hujjatning qolgan qismi qanday asosda saqlanişi va qisman haqiqiy emas deb topiş arizaçining huquqini tiklaşga nima uçun yetarli deb topilgani bayon etilişi taklif qilinadi. Qarorning xulosa qismida esa haqiqiy emas deb topilgan band, ilova satri yoki qoidaning muayyan şaxsga yoxud obyektga taalluqli qismi aniq körsatilişi kerak. Agar qonunbuzilişni bartaraf etiş majburiyati ma'muriy organ zimmasiga yuklatilsa, organ bajarişi lozim bölgan harakat ham şu qismda belgilanişi zarur. Bu yondaşuv qarorni ijro etişda ma'muriy hujjatning qaysi qismi qöllanişi va buzilgan huquq qanday tiklanişi yuzasidan noaniqlikni kamaytiradi.

[81]O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi (MSIYutK), 158 va 189-moddalar. https://lex.uz/docs/-3527353

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Özbekiston Respublikasining Ma’muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksi (MSIYutK). https://lex.uz/docs/-3527353

2. Özbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi ÖRQ–457-son «Ma’muriy tartib-taomillar töğrisida»gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-3492199

3. Verwaltungsverfahrensgesetz (VwVfG), § 44 Abs. 4. https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/__44.html

4. Verwaltungsgeriçtsordnung (VwGO), § 113 Abs. 1 Satz 1. https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/__113.html

Sud amaliyoti

5. Özbekiston Respublikasi Oliy sudining ma’muriy işlar böyiça 2024-yil törtinçi çorak sud amaliyoti şarhi. 5–6-betlar, 5-1701-2406/12-son iş. https://sud.uz/wp-content/uploads/2025/01/mib4.pdf#page=5

6. Germaniya Federal ma’muriy sudi (Bundesverwaltungsgeriçt). 2020-yil 1-iyuldagi 3 B 1.20-son ajrim, 14-band. https://www.bverwg.de/de/010720B3B1.20.0

Ilmiy adabiyotlar

7. Saidazimov Y. S. Ma’muriy hujjatni özgartiriş, bekor qiliş va haqiqiy emas deb topişning huquqiy asoslarini takomillaştiriş. PhD dissertatsiyasi. TDYU. Elektron nusxa. OAKdagi himoya e’loni: https://oak.uz/pages/21904

8. Brings-Wiesen T. Teilniçtigkeit, § 44 IV VwVfG // Eisentraut N. (Hrsg.). Verwaltungsreçt in der Klausur. § 6, Rn. 163. https://doi.org/10.1515/9783110656220-015